

ILK O'RTA ASRLARDA SO'G'D KONFEDERATSIYASI

Tilavova Guljahon

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbekiston tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning muhim qismida joylashgan So'g'd konfederatsiyasi tarkibiga kirgan hududlar hamda undagi siyosiy munosabatlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: So'g'd, Xitoy, Kesh, Samarqand, Turk xoqonligi, A.Xo'jayev, Mug' g'ori, Kan. Sug'dda ilk o'rta asrlardagi davlat tizimining siyosiy xususiyati haqida turli fikrlar bildirilgan. Sug'diy, Xitoy, keyinroq esa, arab tilli manbalarning ma'lumotlariga ko'ra bu davrda Turk xoqonligining siyosiy nazorati ostida nisbiy mustaqil holda Sug'd konfederativ davlat tuzilmasi amal qilgan. Unda bir muddat Kesh hokimligi, 650-yillardan boshlab Samarqand yetakchilik qilgan. Buxoro vohasida Samarqand ixshidlari xonadoni bilan yaqin qarindosh «An chjaou»lari bir necha yuz yil («yigirma ikki avlod») davomida hukmron bo'lganlar. Kesh esa VII asr o'rtalarida Samarqandga itoat etib, ixshid Shishpir hukmronligi tugagan, undan keyin Keshda hokimiyatga kelgan Shiagye Varxumanga tobe bo'lgan. Xitoy mualliflari Syuan Szyan va Xoy Chaolar Sug'dning markaziy va mahalliy mulklarining o'zaro pog'onalarlashgan itoat tizimi haqida yetarli ma'lumot qoldirishgan.

Sug'd tilidagi Mug' tog'i hujjatlarida ham Sug'dning konfederativ davlatchilik tizimi haqida xulosa beruvchi boy ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Lekin Sug'd konfederatsiyasining davlatchilik tarixida tutgan o'rni va ahamiyatiga bevosita qaratilgan maxsus tadqiqotlar nihoyatda kamdir. Jumladan, Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar to'liq o'rganilmagan. Vaholanki, ilk o'rta asrlarda O'zbekiston hududlarida mahalliy davlatchilik, mustaqil va yarim mustaqil davlat tuzilmalarining mavjud bo'lganligini o'rganish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur konfederatsiya tarkibidagi mustaqil va yarim mustaqil davlat tuzilmalarining shakllanishi taraqqiyoti, Turk xoqonligi hukmronligi davrida mamlakatning ichki va tashqi siyosiy vaziyati, Sug'dning ijtimoiy hayoti va davlatchilik funksiyalari, mahkamachilik tizimi, davlatning o'rni, soliq tizimlari haqida ma'lumot olish ehtiyoji yuqoridir.

Mug' tog'i sug'diy hujjatlari majmui o'lkaning hayotiga oid ma'muriy tizimni, devonxona-mahkamachilik ishining usullari va shakllarini, boshqarishdagi tartib va nazorat xususiyatlarini, lavozim egalarining o'zaro munosabatlarini yoritishda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar hujjatlar asosida jamiyatning tarkibiy tuzilishiga diqqat qilishgan. Bu masalada ijtimoiy pog'onalarining yuqoridan quyigacha ketma-ketligi, tabaqalanishning ichki

bo'g'inlari, erkin aholi va uning kasb-kori, qaram ijtimoiy tabaqalarning tarkibi kabi qator muhim masalalar yuzaga keldi¹.

Shuni aytib o'tish joizki, ilk o'rta asr Sug'd tarixi O'zbekiston tarixining ajralmas qismidir. O'zbekiston hududida kechgan davlatchilik tarixining rivojlanish bosqichlarida Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari bo'ylab, Samarqand, Buxoro, Kesh-Shahrisabz, Qarshi-Naxshab vohalarida miloddan avvalgi birinchi ming yillik, milodiy birinchi ming yillikning so'nggi choragiga qadar Sug'd nomi bilan davlatchilik jarayonlari kechganligi, nihoyat bu jarayon milodiy VI asr o'rtalaridan VIII asr o'rtalarigacha Sug'd konfederativ davlat tuzilmasi ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan davlatchiligimiz tarixining muhim bosqichini o'z ichiga olgan Sug'd konfederativ tuzilmasining ichki ijtimoiy-siyosiy masalalarini o'rganishda sug'diy yozma yodgorliklarining o'rni beqiyosdir.

O'z vaqtida yozma manbalarda keltirilgan zodagonlarning toifalari yer mulkchiligiga asoslangan rivojlangan mansab, ijtimoiy pog'onaning (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi) mavjudligidan dalolat beradi. Bu tizimning oliy pog'onasini aslzodalar egallaganlar.

Xukmron xonadon namoyandalari qatoriga ixshidlar (podsholar)ning Samarqand sulolasi kelib chiqqan Kan xonadoni a'zolari, shuningdek, Buxoro, Xorazm, Kushoniya, Marv va boshqa Markaziy Osiyo o'lkalari hukmdorlari kirgan². Zodagonlarning keyingi toifasi yer egalari bo'lib, bulardan so'ng ko'p sonli «azatlar» turgan. Bularning umumiy nomi (azatkor-azat xalqi) avvalgilarga ham taalluqli bo'lgan. Tangalarda va sug'diy hujjatlarda Sug'd zodagonlari tarkibi haqida keltirilgan unvonlar nafaqat o'lkaning siyosiy tarixini, balki jamiyatning ijtimoiy munosabatlarini ham yoritib beradi. Sug'd tangalarini kuzatganda VI asr oxiri VII asr boshlarida mahalliy hukmdorlar unvonlari ma'lum bir o'zgarishlarni boshdan kechirganligini ko'rish mumkin. Bronza tangalardagi yozuvlarda Sug'd hukmdorining oddiy unvonidan tashqari yana ikkita, boshqa unvonlar paydo bo'ladi. Oliy darajaga taalluqlisi «podsho» - (aslida «hukmdor») unvondir. Ikkinchisi «hokim» va uchinchisi «janob» unvonlaridir.

Ulardan birinchisi vorislik huquqiga ega bo'lgan Samarqand podshohlarining tangalarida VII asr ikkinchi yarmida, ularga tegishli bo'lgan umumiy unvon o'rnida paydo bo'ldi. Shu davrdan boshlab, yilnomalar va sug'diy hujjatlarda ko'rsatilishicha ular «podsho» yoki «Sug'd podshosi» unvoniga ega bo'ldilar. Bu unvon ulardan keyin, sulola hukmronlik qilgan davr mobaynida saqlanib qoldi.

Ikkinchi «hokim» unvoni Mug' hujjatlarining dalolat berishicha aslida Samarqand va Panjikent hukmdorlarining unvoni yoki faxriy nomi bo'lgan. Uchinchi unvon - Markaziy

¹ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. - М.: Наука, 1970. - 288 б.;

² Чжао-у ёки Чжаову – туркий манбаларда олий ва маҳаллий ҳукмдорларнинг ябғу унвони билан бир бўлиши ҳам мумкин

Osiyoning qadimiy unvonlaridan bo'lib, og'zaki tilda ikki ma'noda-ijtimoiy ierarxiya unvoni va yer egaligi nomi, shu jumladan, odatiy muomalada hurmat ifodasi sifatida amal qilgan.

Markaziy Osiyo hukmron xonadonlari haqidagi ma'lumotlar «Beyshi» («Shimoliy xonadonlar tarixi»), «Suy shu» («Suy sulolasi tarixi») va «Tan shu» («Tan sulolasi tarixi») kabi xitoy yilnomalarida keltirilgan³. Ularning ma'lumot berishicha, bu xonadonlar yuechjilar naslidan kelib chiqqan. Ya'ni, Kushonlar sulolasi bilan bevosita aloqador deb hisoblanadi. Ushbu yilnomalarda xabar berilishicha, Markaziy Osiyo hukmron urug'laridan ba'zilar ko'p avlodlarni o'z ichiga olgan. Masalan, Buxoro hukmdorlari sulolasi 22 avloddan iborat bo'lib, 400 yildan ortiq hukmronlik qilgan (avlodga o'rtacha hisobda 20 yildan hisoblaganda). Shu manbalarning ma'lumotlariga qaraganda Kan (Samarqand) hukmdorining urug'i eramizning birinchi asriga borib taqaladi. Kan xonadoni alohida avlodining namoyandalari Buxoro, Kushoniya, Ishtixon, Kesh, Naxshab, Ustrushona, Choch, boshqa so'z bilan aytganda, Zarafshon, Qashqadaryo, Sirdaryoning o'rta oqimi va uning tarmoqlari (Angren va Chirchiq) bo'ylab joylashgan rayonlarga hukmronlik qilganlar⁴. Ushbu manbalarga qaraganda, shu xonadonga Xorazm, Farg'ona va Amudaryodan janubdagi joylarning hukmdorlari ham taalluqli bo'lgan. Birgina Xorazmning Afrig' sulolasi o'zini Siyovush bilan bog'lagani sababli Xitoy yilnomalarining ma'lumotlari bilan ziddiyat bordek ko'rinadi.

Tadqiqotchi olim A.Xo'jayev «Kangguo» yoki «Kanggo» atamasi haqida quyidagicha yozadi: «O'rta asrlarga oid xitoy manbalarida Kangguo yoki Kanggo deb o'qiladigan ikki ieroglif bilan yoziladigan atama paydo bo'ldi. U qadimgi zamon xitoy tilida «kang-kuek» deb talaffuz etilgan... Kanggo Samarqandni markaz qilgan...»⁵. Shuningdek, olim «Vey sulolasi tarixi» tahlilidan kelib chiqib, Kanggo davlatiga asos solgan xalq haqida quyidagilarni keltiradi: «...ushbu davlatni qurgan xalq qadimda Silyan tog'larining shimolida yashagan bo'lib, ular xunlar bilan to'qnashuv natijasida o'z yurtlarini tashlab, Pomir orqali Samarqand viloyatiga kelib joylashgan. Kanggoning xoni (aslida hukmdori) Shifubi turk xoqoni Dadu (Tardu)ning qiziga uylangan⁶. Mazkur davlat aholisi chuqur ko'z, baland burun va sersoch bo'lgan. To'y va janoza ma'rakalarini o'tkazish turklardan farq qilmaydi, budda diniga itoat qilgan. Vey sulolasi xoni Tayyan (435–440) saroyiga Kanggo elchi yuborgan. Dae xoqon davrida (605–617) mazkur davlatdan Xitoyga so'nggi elchi borgan»⁷.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Xitoy yilnomalarida Sug'd «Su-li», Samarqand esa «Kan» deb nomlanadi⁸. Xitoy ma'muriy terminologiyasiga qaraganda Kesh va Buxoro ham Su-liga qarashli bo'lgan. VIII asr boshlarida Sug'dga Qashqadaryo vohasi ham kirganligi Qutayba bilan G'urak o'rtasida tuzilgan 712 yilgi Samarqand shartnomasida aniq belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

³ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии...

⁴ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений ...

⁵ Хўжаев А., Хўжаев К. Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши. –Т.: Маънавият. 2001.

⁶ Бобоёров Ф. Турк хоқонлиги даврида Сугд...

⁷ Ўша асар...

⁸ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии ...